



EKOLOGIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

*Azimova Maftuna Muhammadamin qizi*

*Qo'qon universiteti o'qituvchisi*

*[Maftunaazimova67@gmail.com](mailto:Maftunaazimova67@gmail.com)*

*Tel: (88) 811-67-57*

*Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*2-22-guruh talabasi*

*Rashidova Shohsanamxon Zokirali qizi*

*Tel: +99894.790.48.04*

*[shoxsanamrashidova9@gmail.com](mailto:shoxsanamrashidova9@gmail.com)*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada inson salomatligiga ekologik muhitning ta'siri ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, suv va tuproq resurslarining degradatsiyasi, havo sifatining yomonlashishi, global isish, shovqin va elektromagnit nurlanish kabi ekologik omillar jismoniy va ruhiy salomatlikka qanday ta'sir qilishi keng yoritiladi. Maqolada ekologik muammolarning oldini olish, profilaktik choralarni joriy etish, aholini ekologik madaniyat bilan ta'minlash va barqaror rivojlanish yo'llari amaliy tavsiflar bilan keltirilgan. Tadqiqot natijalari ekologiya va tibbiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda ko'rsatib, sog'lom va barqaror jamiyat qurish uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, inson salomatligi, havo ifloslanishi, suv sifati, tuproq degradatsiyasi, global isish, barqaror rivojlanish, profilaktika.



**Аннотация**

В данной статье анализируется влияние экологической среды на здоровье человека с научной и практической точек зрения. Широко освещается, как факторы окружающей среды, такие как загрязнение окружающей среды, деградация водных и почвенных ресурсов, ухудшение качества воздуха, глобальное потепление, шум и электромагнитное излучение, влияют на физическое и психическое здоровье. В статье представлены с практическими описаниями пути предупреждения экологических проблем, внедрения профилактических мер, обеспечения экологической культуры населения и устойчивого развития. Результаты исследования показывают связь между экологией и медициной на научной основе, подчеркивая необходимость обеспечения экологической безопасности для построения здорового и устойчивого общества.

**Ключевые слова:** экология, здоровье человека, загрязнение воздуха, качество воды, деградация почвы, глобальное потепление, устойчивое развитие, профилактика.

**Annotation**

This article analyzes the impact of the environmental environment on human health scientifically and practically. It is widely covered how environmental factors such as environmental pollution, degradation of water and Soil Resources, deterioration of air quality, global warming, noise and electromagnetic radiation affect physical and mental health. The article presents practical descriptions of ways to prevent environmental problems, introduce preventive measures, provide the population with ecological culture and sustainable development. The results of the study show the link between ecology and medicine on a scientific basis, emphasizing the need to ensure environmental safety in order to build a healthy and sustainable society.

**Keywords:** ecology, human health, air pollution, water quality, soil degradation, global warming, sustainable development, prevention.

**Kirish.** *XXI asrda insoniyat ilm-fan, texnologiya va sanoatda ulkan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, tabiat resurslarining haddan tashqari ishlatilishi va ifloslanishi global ekologik muammolarni kuchaytirdi. Bugungi kunda ekologik muhitning sifati nafaqat tabiatning barqarorligi, balki inson salomatligi va hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Inson faoliyati natijasida havo, suv, tuproq va oziq-ovqat resurslari ifloslanib, biologik xilma-xillik kamayib bormoqda. Natijada, allergiya, respirator kasalliklar, yurak-qon tomir tizimi muammolari, ichak va ovqat hazm qilish kasalliklari, ruhiy stress va hatto genetik buzilishlar kabi sog'liq muammolari ortib bormoqda. Shuningdek, global isish, iqlim o'zgarishi, shovqin va elektromagnit nurlanish kabi yangi ekologik xavf omillari odamlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga yangi tahdidlar yaratmoqda. Shu bois, ekologiya va inson salomatligi masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy mavzu bo'lib, uni o'rganish nafaqat tibbiyot va biologiya sohalari, balki ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot va siyosat bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mazkur maqolada inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ekologik omillar keng qamrovli tahlil qilinadi, muammolarni bartaraf etish va profilaktika choralariga oid amaliy takliflar keltiriladi. Shu bilan birga, maqola ekologik madaniyatni shakllantirish, jamiyatni sog'lomlashtirish va barqaror rivojlanishga erishish yo'llarini ko'rsatadi.*

**Asosiy qism.** Hozirgi kunda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahon bo'yicha 300 mln. tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilib, ular yordamida milliondan ortiq buyumlar tayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo, suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki,

buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik, konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik(chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik(tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy,simob), noorganik gazlar ( $SO_2$ ,  $CO_2$ ,  $NO_2$ ,  $O_3$ ), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir. <sup>1</sup>Havo sifati ham inson organizmining sog'lom ishlashi uchun muhim omildir. Sanoat chiqindilari, transport vositalari, kimyoviy moddalar va chang havoni ifloslantirib, jiddiy sog'liq muammolarini keltirib chiqaradi. Masalan: nafas yo'llari kasalliklari (astma, bronxit), yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, bolalarda rivojlanish va o'sishning buzilishi. Ifloslanish havo, suv va tuproq sifatining yomonlashishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida inson va hayvonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.<sup>2</sup> Sifatli ichimlik suvi insonning sog'lig'i uchun zarur. Suvning ifloslanishi bakterial, virusli va kimyoviy xavflarga olib keladi. Masalan: Nitratlar va og'ir metallar ichak va buyrak kasalliklarini keltirib chiqaradi. Dezinfeksiya qilinmagan suv ichak infeksiyalari, gepatit, parazit kasalliklar xavfini oshiradi. Tuproq degradatsiyasi va oziq-ovqat xavfsizligi. Tuproqning ifloslanishi oziq-ovqat sifatiga ta'sir qiladi. Pesticidlar, herbisidlar, og'ir metallar oziq-ovqat orqali

---

<sup>1</sup> **Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences** Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5th November, 2024 ISSN: 2835-5326 Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

<sup>2</sup> [Ekologiya buzilishining inson salomatligiga ta' siri](#)

organizmga kiradi. Oqibatda garmon tizimining buzilishi, allergik reaksiyalar, ichki a'zolar faoliyatining pasayishi, bolalarda intellektual rivojlanishning sekinlashishi kuzatilishi mumkin. Iqlim o'zgarishi va global isish. Global isish natijasida yuqori haroratlar, qurg'ochilik va toshqinlar yuzaga keladi. Bu esa turli yuqumli kasalliklar tarqalishiga, ruhiy stress va jismoniy muammolarga olib keladi. Misol uchun issiq urishi, suvsizlanish va oziq-ovqat tanqisligi, tropik kasalliklarning yangi hududlarga tarqalishi, ruhiy salomatlik buzilishi kabilar. Zamonaviy texnologiyalar ham inson salomatligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shovqin, uyqu buzilishi, asabiylik, eshitishning pasayishi, genetik o'zgarishlar, immunitet pasayishi, o'sma kasalliklari kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.<sup>3</sup>Shuning uchun ekologik monitoringni kuchaytirish: havo, suv, tuproq sifati muntazam nazorat qilinishi, ekologik madaniyatni oshirish: maktab va oliy ta'limda ekologiya fanini rivojlantirish, mahallalarda yashil hududlar yaratish sanoat va transportda ekologik standartlar joriy etish: chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va yashil texnologiyalar sog'liqni saqlash tizimida ekologik kasalliklarni erta aniqlash va profilaktik tekshiruvlar o'tkazilishi lozim.

**Xulosa.** Ekologik omillar va inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir. Atmosfera havosining ifloslanishi, suv va tuproqning degradatsiyasi, iqlim o'zgarishi, shovqin va elektromagnit nurlanish kabi omillar har bir insonning hayot sifatini, organizmning funksional barqarorligini va ruhiy holatini bevosita ta'sir qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolarni hal etmaslik kelajak avlodning sog'lom rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli ekologik xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish, sog'lomlashtiruvchi amaliy dasturlarni joriy etish va aholini ekologik madaniyat bilan ta'minlash muhim vazifa sifatida qaraladi. Jamiyatda

<sup>3</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Environmental\\_health](https://en.wikipedia.org/wiki/Environmental_health)

ekologik ongni shakllantirish, ifloslanishni kamaytirish va sog'lom muhit yaratish orqali insonlar nafaqat jismoniy sog'lomlikni saqlab qoladi, balki ruhiy barqarorlikka erishadi. Tabiatni asrash — inson hayotini saqlashdir, va bu bugungi kunda har bir davlat, jamiyat va shaxsning ustuvor vazifasiga aylanishi lozim. Shu bilan ekologik barqarorlik va inson salomatligi bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog'liq ikki muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ekologiya buzilishining inson salomatligiga ta'siri maqola. O'zbekiston Respublikasi Toshkent sh.Alfraganus universityning 2-kurs Logo-23/4 talabasi S.M.Eshmetov.

2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Environmental\\_health](https://en.wikipedia.org/wiki/Environmental_health)

3. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5th November,

2024 ISSN: 2835-5326 Website: econferenceseries.com

4. EKOLOGIYA BUZULISHINING INSONLAR VA TABIATGA SALBIY TA'SIRI Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi O'rmon xo'jaligini rivojlantirish innovatsiya markazi kichik ilmiy xodim

5. Temirova. M. M. Tasks of the preventive inspector in raising the level of legal culture of the population and studying public opinion Interdiscipline innovation and scientific research conference international scientific-online conference part 20 may 15th collections of scientific works london 2024

6. Temirova M. M. РЕФОРМЫ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ УЗБЕКИСТАНА И СТРАТЕГИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА (1991–2025 EuroAsian International Scientific Online



Conference Volume 5 Issue 1 | 2026 | International conference on multidisciplinary studies and education (Fransiya xalqaro konferensiya)

7. Temirova M.M. Jamoat tartibini saqlashning tarixiy bosqichlari Bosma O‘z MU xabarlarlari 2025/11 (mahalliy OAK) 20-24

8. Azimova, M. M.(2025). SOBIQ SHO'ROLAR VA SOVETLAR HUKUMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA TIBBIYOT TARIXI. B THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES (T. 4, Выпуск 20, сс. 42–46). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.16626069>

9. Azimova M.M. FARG‘ONA VODIYSIDA O‘TISH DAVRI BOSQICHLARIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING MODDIY.<https://esiconf.org/index.php/MRIATS/issue/view/89> Angliya xalqaro konferensiyasi.

10. Temirova M.M. Farg‘ona viloyat radiosi tarixiga doir ayrim mulohazalar FarDU Ilmiy xabarlarlari – 2019. – № 5. – (07.00.00. №.32).

11. Islomov A. L. Economic cooperation between Uzbekistan and Azerbaijan in the 21st century. Edu vision journal of Innovations in pedagogy educational Advancements volume 01. ISSUE 02. February 2025. ISSN €: 3061-6972.

12. Azimova M.M. Farg‘ona vodiysida o‘tish davri bosqichlarida sog‘liqni saqlash sohasining moddiy texnik holati. Humanities science xalqaro jurnali. INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI 2-jild, 1-son (yanvar, 2026). – B. 53.

